

**Loyiha rahbari:**

t.f.d. Boboyorov G‘aybulla Bollijevich

E-mail: gaybullah@mail.ru

Tel: +998936762101

Loyihaning maqsadi. Miloddan avvalgi I mingyillikning so‘nggi asrlaridan milodiy bir ming yillik oxirlariga oid sug‘diy tildagi yozma yodgorliklar (epigrafik, hujjatlar va boshqalar)dagi o‘zbek davlatchiligi tarixiga doir ma‘lumotlarni tarjima qilish, izohlar yozish, noma‘lum yoki munozarali bo‘lib kelayotgan masalalar yuzasidan tadqiqot olib borish, shu asosda maqolalar, risolalar yozish va ularni O‘zbekiston hamda xorij matbuotida nashr qilib borish.

Loyihaning qisqacha tavsifi (vazifasi). Miloddan oldingi II – milodiy XII asrlarda Amudaryo – Sirdaryo oralig‘ida yashagan sug‘diylardan bugungacha o‘lkan madaniy meros yetib keldi. Markaziy Osiyo sivilizasiyasiga o‘z hissasini qo‘shgan sifatida sug‘diylar mintaqqa xalqlari tarixida o‘ziga xos iz qoldirib, Buyuk Ipak yo‘lining nafaqat ushbu mintaqadan o‘tuvchi tarmoqlarida, balki Sharqiy Yevropadan to Uzoq Sharqqacha, Urolbo‘yi va Janubiy Sibirdan to Shimoliy Hindiston va Tibetgacha cho‘zilgan hududlarda yashagan turfa xalqlarni dunyoning turli burchaklarida yaratilgan madaniyat yangiliklaridan xabardor bo‘lishini ta‘minladi.

Kutilayotgan natija:

O‘zbek tilida saqlanib qolgan sug‘diycha so‘z va iboralar aniqlandi va ular bo‘yicha ilmiy risola tayyorlash uchun materiallar yig‘ilib, bu bo‘yicha ilmiy maqolalar yozildi, ilmiy anjumanlarda ma‘ruzalar qilindi; sug‘diy tilli epigrafik, geraldik va numizmatik materiallar yig‘ilib, ulardagi matnlar o‘zbek tiliga o‘girildi, yangi o‘qish va tarixiy izohlar amalga oshirilib, shu asosda ilmiy 1 monografiya va 1 ta risola chop etildi (Boboyorov G‘., G‘oyibov B., Kubatin A. “O‘rta Osiyo bitiklari – I. Sug‘diy yozma yodgorliklar. – Toshkent, 2020; Boboyorov G‘., G‘oyibov B. Sug‘dshunoslikka kirish – I. Sug‘diy til va nusmizmatika. – Toshkent, 2019);

Qo‘llanish doirasi:

Ilk o‘rta asrlarda Markaziy Osiyo tarixi, Buyuk ipak yo‘li tarixi, O‘zbekiston hududidagi davlatchilik, o‘zbek davlatchiligi, tilshunoslik, eronshunoslik, turkologiya, arxeologiya, epigrafika, numizmatika, hujjatchilik, diplomatiya, xalqaro huquq, matnshunoslik, etimologiya va yana bir qator ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasida asosiy va qo‘shimcha material vazifasini bajaradi.

Amalga oshirish:

2017-2020 yillarga mo‘ljallangan OT-F1-029. O‘zbek davlatchiligi tarixida sug‘diy til va yozuvining tutgan o‘rni (mil.av. II – milodiy XII asrlar) fundamental grant doirasida (700.000000 so‘m).